

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

# JOPAPS




## JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Volume 1, Issue 5*

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОҢ

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-5>

## Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

## Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти  
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор  
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори  
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори  
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти  
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Педагогика фанлари*

**O'RINOVA Feruza Uljayevna**

*Farg'ona davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi*

**DEXQONOVA Dilrabo Muxamadjonovna**

*Farg'ona davlat universiteti  
magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972925>*

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR INTELLEKTINING RIVOJLANISHIDA NUTQNING O'RNI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha bolalar intellektini rivijlantirishda nutqning o'rni kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, intellect, aqliy tafakkur, verbal nutq, kommunikatsiya

**URINOVA Feruza Uljayevna**

*Fergana State University  
Candidate of pedagogical sciences*

**DEXQONOVA Dilrabo Muxamadjonovna**

*Fergana State University  
master*

## THE ROLE OF SPEECH IN THE DEVELOPMENT OF INTELLIGENCE OF PRESCHOOL CHILDREN

### ANNOTATION

This article addresses issues such as the role of speech in the development of preschool children's intelligence.

**Key words:** speech, intellect, mental thinking, verbal speech, communication

**УРИНОВА Феруза Улжаевна**  
*Ферганский государственный университет*  
доцент кафедры дошкольного образования, кандидат педагогических наук

**Дехконова Дильрабо Мухамаджонова**  
*Ферганский государственный университет*  
магистрант

## РОЛЬ РЕЧИ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТА ДОШКОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются такие вопросы, как роль речи в развитии интеллекта дошкольников.

**Ключевые слова:** речь, интеллект, психическое мышление, речевая речь, общение

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu esa, bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir. Bola borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi.

Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi. Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofda odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir. Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichda bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi [1].

Bola so'zlashni o'rganishiga sabab shuki, uning kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to'g'ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar deyishayotganliklarini tushunishi va o'zi ham so'zlashi lozim.

Biror-bir tushunchaning xoh u maishiy bo'lsin, xoh ilmiy bo'lsin, uning so'z qobig'isiz yashashi qiyin. Shu tufayli biz o'z bilimlarimizni tilimizda qayd etishimiz, ularni boshqa odamlarga yetkazishimiz va til orqali yangi bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin. Insonning yana bir o'ziga xos xususiyati bu – boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandligi sababli, dastlab til paydo bo'lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi.

Bu o'rinda "tilning uch sifati" (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) haqida so'z yuritish mumkin. Tilni tadqiq qilish mustaqil, umumilmiy qiziqishdan tashqari ko'plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahamiyatga egadir. Bularning ayrimlari bevosita tilning yuqorida sanab o'tilgan vazifalaridan kelib chiqadi – til yordamida insoniy tajribani aniqroq qayd etish, til yordamida ifoda etilgan madaniy me'yorlar insonning xulq-atvoriga yanada kuchliroq va mustahkamroq tartibga soluvchi ta'sir ko'rsatishi uchun kishilarning o'zaro muloqoti (masalan, ijtimoiy munosabatlar sohasida) yanada muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun tilni tadqiq qilish zarur. Bundan tashqari, til muammolarini tadqiq qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa amaliy vazifalar ham mavjud.

Psixologiya, boshqaruv nazariyasi, ijtimoiy fanlar sohasida ish olib borayotgan olimlar qator lingvistik vazifalarga duch keldilar. Bola tashqi muhitga (moddiy va ijtimoiy) muhitga qanday moslashmoqda? Bu savollarga javob nafaqat predmetli harakatlarni, balki nutqning o'zini ham o'rganishni ko'zda tutadi.

Sof lingvistik vazifalar (masalan, samolyot, kosmik kema va hokazolar) bilan soʻz orqali aloqa qilishni amalga oshirayotgan operator faoliyatini oqilona tashkil etish paytida yuzaga keladi [2].

Shuningdek, nutqdagi buzilishlar – inson ahvolini baholashda til parametrlari yordam berishi mumkin boʻlgan yagona holat emas. Ayrim vaziyatlarda (ruhiy zoʻriqish, siqilish paytida) yaxshi tayyorgarlikdan oʻtgan odamlarda fiziologik parametrlar boʻyicha ayrim nuqsonlar sezilmaydi, ammo ularning nutqini mutaxassis boʻlmagan odam tushunishi qiyin. Faqat til mezonlarigina bunday holat yuz berishidan dalolat berishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, til bevosita bilish jarayonlari bilan bogʻliq va bundan tashqari, tilning rivojlanish darajasi umumiy-aqliy rivojlanish darajasiga bogʻliq. Shuning uchun bola nutqini maxsus tadqiq qilish ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarni yoki rivojlanish sekinlashganini aniqlashda yordam berishi mumkin. Lingvistikaning anʼanaviy-amaliy vazifasi chet tillarga oʻqitishdir. Tilni batafsil tavsiflamasdan turib, undagi nutqni oʻrganish mumkin emas. Zamonaviy lingvistika– bu nafaqat mavjud tillarni bayon qilish, balki tilga faoliyat sifatida yondashish, soʻzlayotgan odamni oʻrganish hamdir.

Bolaning faol nutqni oʻzlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi:

- emotsional munosabatlar;
- birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar;
- tovushli munosabatlar[3].

Kommunikativ omilning koʻrib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va oʻz holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, yaʼni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida – bolaning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini oʻzgartirgan holda kattalar bilan muloqotga boʻlgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bogʻliq boʻladi. Bu bola nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini oʻzlashtirishiga olib keladi. Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi oʻrinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Bolalar nutqini rivojlantirishni ragʻbatlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni koʻzlagan holda pedagogik say-harakatlarni uyushtirish kalitidir. Tilning fikrlash bilan mustahkam uzviy bogʻliqligi kishilarning ishlab chiqarish faoliyati, fikr almashish va birgalikda harakat qilish zarurati tufayli yuz beradi. Garchi til va fikrlash bir-birisiz mavjud boʻlolmasa-da, ular aynan bir hodisaga taalluqli emas.

Fikrlash – obyektiv borliq aksi, til esa – fikrni ifodalash, mustahkamlash va uni boshqa kishilarga yetkazish usuli hisoblanadi. Soʻz va tushuncha dialektik jihatdan oʻzaro bir-biriga bogʻliqdir. Til bilan fikrlashning oʻzaro uzviy bogʻliqligi haqidagi qoida bolalarga ona tilini oʻqitish tizimini ishlab chiqish, taʼlim va tarbiya ishlarining oʻzaro bogʻliq boʻlishi haqidagi talabni asoslash uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Intellect, yaʼni tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayolot, fikrlash, shuningdek, nutq yordamida anglash qobiliyati – bu insonni hayvondan ajratib turuvchi muhim xususiyatlardir. Intellect ham, nutq ham insonda ilk bolalik yoshida paydo boʻladi u oʻsmirda va yosh yigitda faqatgina uning organizmi rivojlanayotgani uchun emas, balki ushbu odam nutqni oʻzlashtirib olgan taqdirdagina jadal takomillashib boradi [7].

Demak, xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, agarda bolada atrofidagi kattalar ilk bolalik davridan boshlab toʻgʻri soʻzlashga oʻrgatsalar, bu holda bunday bola intellektual jihatdan normal rivojlanadi: unda tasavvur qilish, soʻngra fikrlash va xayol surish qobiliyati paydo boʻladi; har bir yosh bosqichida bu qobiliyat takomillashib boradi. Bola intellektining rivojlanishi bilan bir vaqtda uning emotsional-irodasi ham takomillashib boradi.

## IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. Р.М. Қодирова Ўзбекистон болалар боғчалари ва мактабларида болаларга 5-6 ёшдан бошлаб рус тилида диалогик нутқни ўргатиш. Т., “Ўқитувчи”. 1993.
2. Л.С. Выготский Мышление и речь. М.: Лобиринт, 1996.
3. Р.М.Қодирова. Мактабгача ёшдаги болаларда диалогик нутқни ривожлантиришнинг руҳий омиллари. Қоз.,сариоғоч, 1998.
4. О‘лжайевна О. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo‘llari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. 3. – №. 3. – с. 311-315.
5. Urinova F., Azizmatova z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
6. O‘rinova f. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
7. Уринова Ф. У. Особенности развития психологии ребёнка дошкольного и младшего школьного возраста //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 68-71.
8. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – т. 4. – с. 444-448.
9. Uljaevna o. F. Et al. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 660-667.
10. Uljaevna u. F. Et al. Creolized texts, their features and possibilities //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 668-673.
11. Uljaevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 107-110.
12. Uljaevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 654-659.
13. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 47-51.
14. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE”. International Conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland.ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022
15. Urinova Feruza Uljaevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn:2795-4846. Vol.4/(2022).
16. Uljaevna U. F. et al. NECESSARY CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 4. – С. 444-448.

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

**«Педагогик ва психологик тадқиқотлар»** электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

**Муассис:** «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

**Таҳририят манзили:** 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

**Телефон номер:** +99894-410 11 55

**Эл. почта:** [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

**Веб-сайт:** [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)